

Jizzax viloyatining investitsiya loyihalari ko'rib chiqildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-fevral kuni Jizzax viloyatining investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga mazkur viloyatda joriy yilda amalga oshiriladigan 515 ta loyiha haqida ma'lumot berildi. Loyihalarning umumiy qiymati 35 trillion 500 milliard so'm. Ularning natijasida yiliga 25 trillion so'mlik mahsulot tayyorlash quvvatiga ega yangi korxonalar, qariyb 23 ming ish o'rnini tashkil etiladi. 264 million dollarlik import o'rnini bosish hamda 311 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

Jizzax viloyatida qurilish materiallari, avtomobilsozlik va to'qimachilik sanoati hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlari katta salohiyatga ega. Loyihalarni shakllantirishda ham ushbu sohalar "drayver" sifatida belgilab olingan.

Masalan, qurilish materiallari sanoatida 8 ta loyiha rejalashtirilgan. Ulardan biri - bazalt tolasi va undan turli materiallar ishlab chiqarishga qaratilgan. 723 milliard so'mlik mazkur loyiha uchun bugungi kunda yer ajratilgan. Korxonalar shu yil uchinchi chorakda ishga tushirilib, 205 ta ish o'rnini ochilishi mo'ljallangan.

Shuningdek, yuqori markali sement, beton plitalar, armaturalar, geosetkalar ishlab chiqarish bo'yicha ham istiqbolli loyihalar bor.

Avtomobil sanoatida ham loyihalar ko'zda tutilgan. Masalan, mikroavtobus, tijorat va yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha loyiha ichki bozor uchun g'oyat zarur. Bu korxonalar ham joriy yil yakunida foydalanishga topshirilib, 500 kishi ish bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Jizzax shahrida tashkil etiladigan to'quvchilik majmuasi mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, xotinqizlar bandligini oshirishda muhim o'rin tutadi. 39 million dollarlik mazkur korxonalar qurilishi bu yil yozda boshlanib, kelgusi yil ishga tushiriladi.

Tog'li hududlarda dorivor o'simliklar yetishtirish, ularni qayta ishlab, eksport qilish davlatimiz rahbari

ko'rsatib bergan ulkan imkoniyatlardan biri. Bugungi kunda mamlakatimizda shu sohaga ixtisoslashgan 7 ta klaster faoliyat yuritmoqda. Xususan, "BMB Trade Group" klasteri tomonidan Baxmal tumanida za'faron yetishtirish va qayta ishlash yo'lga qo'yilmoqda. 30 million dollardan ziyod qiymatdagi ushbu loyiha natijasida 200 kishi ishli bo'ladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida chorvachilik, parrandachilik, go'sht va sutni qayta ishlash, ipak mato ishlab chiqarish kabi bir nechta loyihalar mo'ljallangan.

Taqdimotda ushbu loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, moliyalashtirish manbalari va infratuzilma masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatining salohiyati bundan ancha katta ekanini, ko'plab yirik loyihalarni amalga oshirish mumkinligini ta'kidladi. To'qimachilikda mahalliyashtirishni chuqurlashtirib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda talab yuqori meva-sabzavotlar yetishtirib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yerosti ma'danlarini o'zlashtirishga xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha topshiriqlar berildi.





Manba